O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari maktab menejmentini yangi bosqichga olib chiqib, unda inson omili, pedagog salohiyati va innovatsion rivojlanish ustuvor yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa ma'muriy boshqaruvdan inson kapitaliga asoslangan samarali ta'lim boshqaruviga o'tish jarayonining amaliy ifodasidir.

Jamiyatni ilmiy asosda boshqarish – davlatga xos obyektiv qonuniyatlar va rivojlanish tendensiyalarini chuqur anglash hamda ulardan samarali foydalanish orqali ijtimoiy tizim yoki uning alohida bo'g'inlariga insonlarning ongli, maqsadga yo'naltirilgan va izchil ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Mazkur jarayon tizimning barqaror faoliyat yuritishi, izchil rivojlanishi va belgilangan maqsadlarga erishishini ta'minlaydi.

Maktab boshqaruvi ham aynan shu qonuniyatlarga tayansa-da, bunda ta'lim sohasiga xos xususiyatlar, albatta, inobatga olinadi. Bu xususiyatlar boshqaruv obyektlari, funksiyalari, metodlari hamda boshqa inson faoliyati sohalari bilan o'zaro aloqalarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun maktabni boshqarish jarayoni ishlab chiqarish korxonalar yoki boshqa muassasalar rahbarligi faoliyatidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu haqda Konstantin Ushinskiy shunday ta'kidlagan: "Moliyaviy yoki ma'muriy sohada buyruq va ko'rsatmalar orqali faoliyat yuritish mumkin, ammo ijtimoiy tarbiya sohasida g'oyani hayotga tatbiq etishning yagona vositasi – bu ochiq bildirilgan yoki anglangan ishonchdir" <sup>[7]</sup>.

Umumta'lim maktabini boshqarish umumiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonini ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot talablariga mos holda muntazam takomillashtirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Maktab boshqaruvini rivojlantirishda bir tomondan ijtimoiy tizimlarni boshqarishning umumiy qonuniyat va tamoyillariga tayanish, ikkinchi tomondan esa maktabning o'ziga xos maqsad va vazifalarini chuqur hisobga olish talab etiladi. Shu bois boshqaruvning asosiy tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish va belgilangan maqsadlarga erishishda amal qilinishi zarur bo'lgan fundamental qoidalar hisoblanadi. Bu tamoyillar qatoriga maktab hayotini demokratlashtirish, ilmiylik, kollegiallik va rahbarlik uyg'unligi, tizimlilik va kompleks yondashuv, rejallilik, aniqlik, tezkorlik hamda ishbilarmonlik kiradi.

"Boshqaruv shakllari va metodlari" masalasida tashkiliy-ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy va boshqa boshqaruv usullari yoritiladi. Ushbu metodlar tarkibida pedagogik usullar ham muhim o'rin tutadi. Boshqaruv metodlari ilmiy boshqaruv tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Ular muqobil xususiyatga ega bo'lib, boshqarilayotgan obyektning xususiyatlari, boshqaruv organining tizimdagi o'rni va bajaradigan vazifalariga bog'liq holda tanlanadi. Shu bilan birga, boshqaruv usullari obyektiv qonuniyatlarga mos kelishi va belgilangan maqsadlarga erishish yo'llarini ifodalashi lozim <sup>[8]</sup>.

Maktabdagi boshqaruv shakllari pedagogik hamda o'quvchilar jamoasi imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirishga, natijada o'quvchi shaxsini shakllantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu sababli maktab boshqaruvi insonning pedagogik jarayonda obyekt va subyekt sifatidagi xulq-atvor qonuniyatlari hamda xususiyatlarini aniqlashi zarur. Mazkur jarayonning muhim jihatlardan biri shundaki, maktab rahbari bir vaqtning o'zida ikki obyekt – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini boshqaradi, ular esa pedagogik jarayonning subyektlari sifatida ham ishtirok etadi.

Bundan tashqari, o'quvchi shaxsini tarbiyalashda ota-onalar, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ham muhim o'rin tutadi. Pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini maqsadli tashkil etish va muvofiqlashtirish, maktabning o'quv-tarbiya tizimini yuqori bosqichga olib chiqish maktab boshqaruvining asosiy vazifasi

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5085887>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>



hisoblanadi. Shuning uchun maktab direktori boshqaruvning o'zaro bog'liq shakl va metodlarini puxta egallashi talab etiladi. Bu esa holatni o'rganish va tahlil qilish, qaror qabul qilish va rejalashtirish, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish, tartibga solish va nazorat qilish kabi bir qator boshqaruv funksiyalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktab boshqaruvida pedagogik kengash muhim o'rin egallaydi. U o'qituvchilar jamoasining kollegial organi sifatida maktabning prinsipial va ijodiy pozitsiyasini belgilaydi. Pedagogik kengash faoliyatini rejalashtirishda dolzarblik, ahamiyatlilik, umumiylik, istiqbollilik, uzviylik hamda pedagogik jamoaning asosiy mavzusi xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Maktab direktori pedagogik kengash raisi sifatida uning vazifalarini cheklab qo'yish, muhokama qilinayotgan masalalarning deklarativ tus olishi yoki yig'ilishlarning past ilmiy-nazariy saviyada tashkil etilishi kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymasligi lozim.

Maqolada maktab direktori faoliyatining o'quv-tarbiya ishlarini boshqarish, metodik faoliyatni tashkil etish va pedagogik jamoa ishini muvofiqlashtirish yo'nalishlari ham atroflicha yoritilgan. Bu jarayonda direktorning eng muhim vazifasi – pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar jamoasini boshqaruv jarayoniga jalb etish, ularning kuch va imkoniyatlarini maktabning asosiy maqsadi – o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish uchun safarbar qilishdan iborat. Direktor pedagogik jamoa bilan hamkorlikda asosiy maqsad va vazifalarni ilmiy asosda belgilashi lozim. Shuningdek, maktabning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etish, pedagogik kadrlar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish, ichki axborot tizimini shakllantirish hamda maktabning oila va jamoatchilik bilan hamkorligini ta'minlashi muhim ahamiyatga ega.

Maktab direktori pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida o'zining ishbilarmonligi va shaxsiy fazilatlarini bilan obro'-e'tibor qozona olishi kerak. Uning professional nufuzi boshqaruv va pedagogik faoliyatdagi kompetentligi, tashkilotchilik qobiliyati hamda pedagogik ijodkorligida namoyon bo'ladi. Direktor jamoada sog'lom psixologik muhit yaratishi va ilmiy mehnatni tashkil etish tamoyillarini amaliyotga joriy qilishi lozim. Bunda o'qituvchi va o'quvchilarning vaqt hamda kuchini tejagan holda yuqori natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarning shaxsiy obro'si uning izchil xatti-harakatlari va rahbarlik uslubiga bog'liq bo'ladi. U har qanday vaziyatda ijobiy fazilatlarini namoyon eta olishi, o'qituvchi va o'quvchilarga nisbatan xayrixoh va prinsipial munosabatda bo'lishi zarur. Direktorning haqiqiy e'tiqodi, qadriyatlarini va qarashlari bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida olimlar diqqat markazini sifat jihatidan yangi turdagi ishchi kuchini shakllantirish masalalariga qaratdilar. Ilgari esa asosiy e'tibor mavjud ishchi kuchidan samarali foydalanish muammolariga berilgan edi. Bunday o'zgarish iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Mazkur jarayon inson kapitali nazariyasining Chikago maktabi, konservativ, radikal va neoklassik yo'nalishlari hamda inson kapitali konsepsiyasining alohida shakllanishiga zamin yaratdi. Inson kapitali nazariyasining Chikago maktabi vakillari – Gary Becker, Theodore Schultz va ularning izdoshlari mikroiqtisodiy tahlil doirasini inson xulqi hamda ijtimoiy munosabatlarning ko'plab jihatlariga kengaytirdilar. G'arb iqtisodchilarining aksariyati inson kapitalini inson tomonidan egallangan bilim, malaka, motivatsiya va energiya yig'indisi sifatida talqin qiladilar. Ushbu omillar ma'lum vaqt davomida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin. Ta'lim olish, ishlab chiqarish tajribasini orttirish, sog'liqni saqlash, geografik harakatchanlik va axborot izlash inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalar tarkibiga kiradi <sup>[6]</sup>.

Bekkerning ta'kidlashicha, ta'limga mablag' yo'naltirish haqidagi qarorni qabul qilishda o'quvchilar va ularning ota-onalari bunday sarmoyadan olinadigan foydani boshqa investitsiya turlarining daromadlilik bilan taqqoslaydilar. Masalan, bank omonatlaridan olinadigan foizlar yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar bilan solishtiriladi. Chikago maktabi tarafdorlari ta'lim, tibbiy xizmatlar, ishlab chiqarishdagi tayyorgarlik, migratsiya, farzand dunyoga keltirish va ularni tarbiyalashga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash usullarini ishlab chiqdilar.

Mazkur yondashuvda insonning qayta tiklanadigan qobiliyatlari hamda ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmiga qarab daromadlar o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning ilmiy tadqiqotlari mehnat iqtisodiyotida muhim burilish yasadi. Natijada faqat joriy ko'rsatkichlardan foydalanish amaliyotidan voz kechilib, insonning butun hayotiy faoliyatini qamrab oluvchi ko'rsatkichlardan foydalanishga o'tildi. Inson kapitali nazariyasi shaxsiy daromadlar taqsimoti, ish haqining yosh bo'yicha o'zgarishi, erkaklar va ayollar mehnatiga haq to'lashdagi tafovutlar, migratsiya sabablari kabi ko'plab iqtisodiy hodisalarni izohlash imkonini beradi. Shu sababli ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri sifatida baholanmoqda.

Inson kapitali kapitalning alohida shakli hisoblanadi, chunki u kelgusidagi daromad va ehtiyojlarni qondirishning manbai vazifasini bajaradi. Inson kapitali nazariyasi tarafdorlari ta'limning iqtisodiy samarasi sifatida, avvalo, xodimning ta'lim va kasbiy darajasi oshishi natijasida uning daromadi hamda ish haqi ortishini ko'rsata-

dilar. Ushbu qarashlarga konservativ maktab vakillari – Paul Taubman, Richard Herrnstein va boshqalar qarshi chiqib, inson qobiliyatlari farqlanishida irsiy-biologik omillar asosiy o'rin tutadi, deb hisoblaydilar. Qobiliyat va daromadlardagi tafovutlarni bunday izohlash radikal iqtisodchilar – Samuel Bowles, David Gordon va boshqalar tomonidan tanqid qilindi. Ularning fikricha, ta'lim tizimi ijtimoiy kelib chiqishdagi tengsizlikni daromadlardagi tengsizlikka aylantirib beruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Neoklassik nazariya esa mehnat bozori mohiyatiga asoslanib, unda mehnatga talab nazariyasi va mehnat taklifi nazariyasi mavjudligini ta'kidlaydi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson kapitali insonning bilimlari, malakalari va qobiliyatlari majmuasidan iborat bo'lib, ular uning mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Neoklassik iqtisodchilar inson kapitalining rentabelligini undan olinadigan daromadni uning qiymatiga nisbatlash orqali aniqlaydilar. Ushbu ko'rsatkich "qaytim normasi" deb yuritiladi va jismoniy kapitaldagi foyda normasi singari inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini ifodalaydi <sup>[4]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktab menejmentining an'anaviy ma'muriy boshqaruv modelidan inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv tizimiga transformatsiyalanish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ta'lim menejmenti, inson kapitali nazariyasi hamda zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga oid ilmiy adabiyotlar kontent-tahlil asosida o'rganildi. Turli davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston maktab boshqaruvi amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida maktab rahbariyati faoliyatida liderlik, pedagogik motivatsiya, innovatsion boshqaruv va professional rivojlanish mexanizmlarining samaradorligi tahlil etildi. Olingan natijalarni umumlashtirish orqali maktab menejmentida inson kapitaliga yo'naltirilgan boshqaruv modelining ustuvor jihatlari hamda uni takomillashtirish istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali – bir tomondan zamonaviy xodimning ishlab chiqarish imkoniyatlari yig'indisi, ikkinchi tomondan esa davlat, korxonalar va shaxsning ushbu qobiliyatlarni shakllantirish hamda muntazam rivojlantirish uchun qilgan xarajatlari sifatida talqin qilinadi. Inson salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, davlat iste'molda emas, balki imkoniyatlarda tenglikni ta'minlashi lozim. Ayniqsa, ta'lim sohasida teng imkoniyat yaratish, sog'liqni saqlashning minimal darajasini kafolatlash, shaxs xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarning huquqlariga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kapitalining rivojlanish darajasi mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi mavqeini belgilaydi. Shu bois bugungi kunda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini baholash mezonlari qatoriga inson kapitalining raqobatbardoshligi ham kiritilgan. Hozirgi iqtisodiy nazariyalarda "inson kapitali" atamasi har bir insonda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni zaxirasini anglatadi. Ushbu salohiyat ishlab chiqarish yoki iste'mol maqsadlarida foydalanilishi mumkin va inson shaxsidan ajralmaydi.

Tahlilchilar fikriga ko'ra, yuqoridagi maktablar orasida eng maqbul yondashuv Chikago maktabi hisoblanadi. Chunki ushbu yondashuv yordamida ta'lim, sog'liqni saqlash hamda boshqa ijtimoiy sohalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin <sup>[5]</sup>.

Inson kapitaliga yo'naltiriladigan asosiy investitsiyalar ta'lim, ishlab chiqarish tayyorgarligi, sog'liqni saqlash, migratsiya, mehnat bozorida axborot izlash, farzand tug'ilishi va ularni tarbiyalashdan iborat. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik inson kapitali hajmini oshiradi, sog'liqni saqlash esa uning "xizmat qilish muddati"ni uzaytiradi. Migratsiya va axborot izlash esa inson kapitali xizmatlarining qiymatini oshirishga yordam beradi. Inson kapitalining umumiy va maxsus turlari, rasmiy ta'lim tizimida hamda ish joyida shakllanadigan ko'rinishlari, shuningdek, innovatsion shakllari mavjud. Innovatsion shakllar bandlik sohasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, universal ahamiyat kasb etishi; faqat rasmiy ta'lim tizimida emas, undan tashqarida ham shakllanishi mumkinligi; texnologik va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish imkoniyatini kuchaytirishi kabi qator xususiyatlarga ega.

Ish joyida shakllanadigan inson kapitali ikki asosiy yo'l orqali rivojlanadi: ishlab chiqarishdagi tayyorgarlik (on-the-job training); amaliy tajriba orttirish (learning by doing). Umumiy inson kapitalini baholashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ta'lim davomiyligi va turli darajadagi ta'limga ega xodimlar ulushi olinadi. Ish joyida shakllangan inson kapitalini baholashda esa umumiy mehnat staji hamda maxsus ish tajribasi hisobga olinadi. Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oliy ma'lumotga va katta tajribaga ega bo'lgan shaxslarning ish haqi o'rta ma'lumotli xodimlarinikiga nisbatan barqarorroq hamda raqobatbardoshroq hisoblanadi <sup>[6]</sup>.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri uni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish modeliga o'tkazishdan iboratdir. Bu esa ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, transport va aloqa tarmoqlariga davlat byudjeti xarajatlarini oshirishni talab qiladi. Axborot texnologiyalari davri jamiyatdan yuqori saviyadagi ta'lim hamda AKT sohasida chuqur bilimlarni talab etmoqda. Korxonalarining bozordagi ustunligi



va yetakchi mavqei tobora ko'proq xodimlarning AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalariga, kompyuter texnikasi hamda dasturiy vositalardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish samaradorlikni oshiradi. Bunga, avvalo, yangi texnikalarni malakali boshqarishga qodir mutaxassislarning mavjudligi sabab bo'ladi. O'zbekistonda ham AKT sohasining taraqqiyoti davlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, katta hajmdagi inson kapitaliga ega bo'lish xodimlarning raqobatbardoshligini oshiradi, ularning bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ishsizlik xavfini kamaytiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida maktab menejmenti nafaqat ma'muriy boshqaruvni tashkil etish, balki inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik faoliyat sifatida qaralmoqda. An'anaviy boshqaruv modeli, asosan, nazorat, byurokratik vazifalar va xodimlar faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi kunda maktab boshqaruvida o'qituvchilarni inson kapitali sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ta'lim sifati bevosita pedagog xodimlarning bilim, malaka va kasbiy salohiyatiga bog'liqdir. Inson resurslarini boshqarishdan inson kapitalini boshqarishga o'tish jarayoni ta'lim tizimida ham muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Avvallari maktab rahbarlari ko'proq ma'muriy nazorat va hujjatlar yuritish bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirgi davrda ular strategik lider, motivator va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda. Bu esa maktab direktorining vazifalarini kengaytirib, uni inson kapitalini boshqaruvchi strategik rahbarga aylantirmoqda.

Zamonaviy strategik menejment o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, motivatsiyasi va farovonligini ta'minlash orqali maktab samaradorligini oshirishni maqsad qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbiy qoniqishi va o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lgan taqdirda, ularning ta'lim sifati ham sezilarli darajada oshadi. Shu sababli maktablarda professional rivojlanish dasturlari, mentorlik tizimi, hamkorlikdagi o'qitish va doimiy malaka oshirish jarayonlari inson kapitalini rivojlantirishning muhim vositalariga aylanmoqda. Maktab menejmentida inson kapitaliga asoslangan yondashuv o'qituvchilarni faqat ijrochi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'rishni talab qiladi. O'qituvchilarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion faoliyat uchun imkoniyat yaratish maktabning umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ijobiy maktab muhiti, sog'lom psixologik iqlim va rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash o'qituvchilarning tashkilotga sadoqatini kuchaytiradi.

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji ta'lim tizimidan yanada moslashuvchan va strategik boshqaruvni talab qilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida inson kapitalini samarali boshqarishning naqadar muhimligi yaqqol namoyon bo'ldi. Masofaviy ta'limni tashkil etish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va psixologik qo'llab-quvvatlash zamonaviy maktab menejmentining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Shu bilan birga, inson kapitalini boshqarishda faqat tashkilot manfaatlariga emas, balki o'qituvchilarning individual ehtiyojlari va farovonligiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Chunki pedagoglarni faqat "resurs" sifatida ko'rish ta'limning insonparvarlik mohiyatiga zid keladi. Shu sababli zamonaviy maktab menejmentida gumanistik yondashuv muhim o'rin egallab, o'qituvchilarning motivatsiyasi, kasbiy o'sishi va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab menejmentida ma'muriy boshqaruvdan inson kapitalini rivojlantirishga o'tish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Strategik boshqaruv, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning farovonligini ta'minlash va innovatsion faoliyatga rag'batlantirish orqali maktablarning samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois zamonaviy maktab rahbari nafaqat boshqaruvchi, balki inson kapitalini rivojlantiruvchi lider sifatida faoliyat olib borishi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga asoslangan boshqaruv modeli o'qituvchilarning kasbiy qoniqishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va tashkilotga sadoqatini oshiradi. Natijada maktabda sog'lom psixologik muhit shakllanib, o'qituvchilarning ta'lim sifati va akademik natijalari yaxshilanadi. Ayniqsa, strategik inson kapitali boshqaruvchi pedagoglarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, global inqirozlar, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va zamonaviy mehnat bozori talablarning o'zgarishi maktab menejmentidan moslashuvchan, innovatsion va insonparvar boshqaruv yondashuvlarini talab qilmoqda. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirishga asoslangan maktab menejmenti ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- maktab rahbarlarini strategik menejment asosida tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- o'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish, mentorlik, tajriba almashish va professional o'quv muhitini rivojlantirish;

- o'qituvchilarning ruhiy salomatligi, ishdagi qoniqishi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;
- o'qituvchilarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish orqali ularning tashkilotga sadoqati va mas'uliyatini kuchaytirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha pedagog va rahbarlarning ko'nikmalarini oshirish;
- o'qituvchilarning kasbiy salohiyati, innovatsion faoliyati va ta'lim sifatiga qo'shgan hissasini muntazam monitoring qilish tizimini yaratish;
- o'qituvchilarni faqat mehnat resursi sifatida emas, balki ta'lim tizimining asosiy inson kapitali sifatida qo'lab-quvvatlashga qaratilgan siyosatni rivojlantirish;
- yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion loyihalarni amalga oshirayotgan o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish lozimligi keltirib o'tiladi.

Bu esa hozirgi globallashtirish jarayoni tez sur'atlarda kechayotgan bir davrda, sun'iy intellekt rivojlanishi, global ish o'rinlarining qisqarishi, intellektual salohiyatga talabning ortishi zamonaviy maktab rahbarlaridan jamoaning doimiy axborot va texnologik adaptatsiyasini ta'minlashni, ta'lim olishda yangiliklarni tez o'zlashtirishni, har bir ma'lumotni tahlil qila olishni, o'qituvchi va o'quvchilarni kritik fikrlashga o'rgatishni, ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishni talab qiladi. Zero, bu jarayonlar XXI asrda maktablarning "yashab qolishi"ni va ahamiyatining yanada ortishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5085887>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktab ta'limi tizimida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>
4. Harold Koontz, Heinz Weihrich. Management: A Global Perspective. New York: McGraw-Hill, 2010.
5. Peter M. Senge. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. New York: Doubleday Currency, 2006.
6. Gary S. Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: The University of Chicago Press, 1993.
7. Wayne K. Hoy, Cecil G. Miskel. Educational Administration: Theory, Research, and Practice. New York: McGraw-Hill Education, 2013.
8. Po'latov Sh., Ishmuhamedov R. Pedagogik menejment. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.